O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING
QARORI

2024-yil 10-sentabr | 486-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi PQ-3042-sonli va 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 16-yanvar kuni o‘tkazilgan 4-sonli bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 28-, va 147-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-sonli qarorining 11-bandida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlar bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlaridan qarzdorlik yoki (va) mahalliy byudjetlarning O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti oldida byudjet ssudalari bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik qoplanmasdan tegishli mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari mablag‘larini boshqa maqsadlarga yo‘naltirish taqiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-dekabrdagi PQ-3454-son qarorining 28-bandida byudjet tashkilotlarining to‘rtinchi guruh bo‘yicha xarajatlar smetasini ijro etish jarayonida hududiy moliya organlari tomonidan optimallashtirilgan byudjet mablag‘lari mahalliy byudjetlarning zaxira jamg‘armalarini ko‘paytirishga yo‘naltirilishi hamda o‘rnatilgan tartibda foydalanilishi ko‘zda tutilganligi inobatga olinsin.

3. Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil uchun tasdiqlangan parametrlari doirasida samarasiz va tegishli hisobot davrida foydalanilmagan xarajatlari

1 va 2-ilovalarga muvofiq hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning xarajatlar smetasi hamda shahar va tumanlar mahalliy byudjetlaridan maqbullashtirilgan holda qayta yo‘naltirilsin.

4. Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) mazkur qaror asosida hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning xarajatlar smetasi hamda shahar va tumanlar mahalliy byudjetlari xarajatlar rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

5. Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar, shahar va tumanlar hokimliklari 2024-yil uchun mahalliy byudjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarni birinchi navbatda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, tashkilotni saqlash uchun zarur bo‘lgan birinchi darajali xarajatlarni amalga oshirish lozimligiga alohida e’tibor qaratish hamda samarasiz xarajatlar va shtat birliklarini qisqartirish choralarini ko‘rib borsinlar.

6. Xalq deputatlari viloyat kengashi kotibiyati (Sh.Karimov) mazkur qaror asosida maqbullashtirilgan va qayta yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida hisobotni Xalq deputatlari viloyat kengashining navbatdagi sessiyasiga kiritilishini nazoratga olsin

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 10-sentabrdagi
486-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Фарғона вилояти шаҳар ва туманлар маҳаллий бюджети харажатларидан мақбуллаштириладиган ва қайта йўналтириладиган маблағлар миқдори

минг сўм

Т/р	Ҳудудлар номи (Маҳаллий бюджетлар)	Маҳаллий бюджетларга киритилаётган ўзгартиришлар				
		Камайтириладиган (мақбуллаштириладиган) харажатлар	Кўпайтириладиган харажатлар	Шундан		
				Соғлиқни сақлаш соҳаси харажатлари	Халқ таълими соҳаси харажатлари	Туман ҳокимликлари нинг заҳира жамғармасига
1	Фарғона шаҳар	0,0	500 000,0	500 000,0		
2	Қўқон шаҳар	300 000,0	300 000,0	300 000,0		
3	Қувасой шаҳар	106 000,0	0,0			
4	Маргилон шаҳар	500 000,0	0,0			
5	Боғдод тумани	0,0	125 000,0		125 000,0	
6	Бувайда тумани	40 330,0	0,0			
7	Бешариқ тумани	300 000,0	0,0			
8	Қува тумани	279 765,0	0,0			
9	Учкўприк тумани	140 000,0	0,0			
10	Сўх тумани	200 000,0	0,0			
11	Тошлоқ тумани	108 432,0	0,0			
12	Ўзбекистон тумани	123 000,0	0,0			
13	Фарғона тумани	51 076,0	120 000,0			120 000,0
14	Данғара тумани	100 000,0	0,0			

15	Фурқат тумани	150 000,0	0,0			
16	Ёзёвон тумани	100 000,0	0,0			
17	Қўштепа тумани	200 000,0	0,0			
ЖАМИ		**2 698 603,0**	**1 045 000,0**	**800 000,0**	**125 000,0**	**120 000,0**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 10-sentabrdagi
486-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Вилоят маҳаллий бюджети харажатларидан мақбуллаштириладиган ва қайта йўналтириладиган маблағлар миқдори

минг сўмда

№	Ҳудудий маблағ тақсимловчилар	Мақбуллаштирилган маблағ	Қайта йўналтириладиган маблағлар
	Харажатлар миқдори, Жами	**2 960 000,0**	**4 613 603,0**
	шу жумладан:		
	жорий харажатлар	**2 960 000,0**	**4 613 603,0**
1.	**Мактабгача ва мактаб таълими бошқармаси**	**590 000,0**	**0,0**
	жорий харажатлар		
	шундан:		
	Мактабгача ва мактаб таълими бошқармаси ва тасарруфидаги муассасаларни сақлаш харажатлари	**590 000,0**	
2	**Соғлиқни сақлаш бошқармаси**	**1 300 000,0**	**0,0**
	шу жумладан:		
	жорий харажатлар	**1 300 000,0**	**0,0**
	шундан:		
	Вилоят соғлиқни сақлаш бошқармаси тасарруфидаги вилоят муассасалари	1 300 000,0	
3	**Маданият бошқармаси**	**0,0**	**590 000,0**
	шу жумладан:		
	жорий харажатлар	**0,0**	**590 000,0**
	шундан:		
	Санъат мактаби (иссиқли тизими харажатлари учун)		590 000,0
4	**Транспорт бошқармаси**	**70 000,0**	**0,0**
	шундан:		
	Автобус йўналишларининг йиллик субсидиялаш харажатлари	70 000,0	
5	**Давлат ҳокимият органлари (Фарғона вилояти ҳокимлиги)**	**1 000 000,0**	**4 023 603,0**
	шу жумладан:		
	жорий харажатлар	**1 000 000,0**	**4 023 603,0**
	шундан:		
	Заҳира жамғармаси		3 000 000,0

	Иссиқлик таъминоти корхоналарига субсидия харажатлари	1 000 000,0	
	Оила ва хотин-қизлар бошқармаси (Ёқилғи харажатлари)		18 000,0
	Жисмоний ва юридик шахсларга етказилган мулкий зарарларни қоплаш бўйича марказлаштирилган жамғарма*		1 005 603,0

Изох: *-Мазкур маблағ вилоят Иқтисодиёт ва молия бош бошқармаси томонидан марказлаштирилган жамғармага ўтказилади